

O‘ZBEKISTONDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

Raimov Otamurod Xolmurotovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada uy-joy fondini boshqarish tizimida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ilg‘or xorijiy tajribalari tahlil qilingan. Xususan, Internet buyumlar (IoT), binolarni axborotli modellashtirish (BIM), raqamli ikkilik (Digital Twin) va “aqli shahar” (Smart City) konsepsiyalari asosida uy-joy fondini samarali boshqarish usullari o‘rganilgan. Singapur, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Qozog‘iston misolida raqamli boshqaruv mexanizmlarining afzalliklari ochib berilgan. Tahlil natijasida O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini boshqarishni raqamlashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: uy-joy fondi, raqamli texnologiyalar, IoT, BIM, raqamli ikkilik, aqli shahar, xorijiy tajriba.

Аннотация

В данной статье проанализирован передовой зарубежный опыт применения цифровых технологий в системе управления жилищным фондом. В частности, изучены методы эффективного управления жилищным фондом на основе концепций Интернета вещей (IoT), информационного моделирования зданий (BIM), цифровых двойников (Digital Twin) и «умного города» (Smart City). На примере Сингапура, стран Европейского союза и Казахстана раскрыты преимущества цифровых механизмов управления. По результатам анализа разработаны практические предложения и рекомендации по цифровизации управления жилищным фондом в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: жилищный фонд, цифровые технологии, IoT, BIM, цифровой двойник, умный город, зарубежный опыт.

Abstract

This article analyzes advanced foreign experience in the application of digital technologies in housing stock management systems. In particular, effective housing management methods based on the concepts of the Internet of Things (IoT), Building Information Modeling (BIM), Digital Twins, and Smart City are examined. Using the examples of Singapore, European Union countries, and Kazakhstan, the advantages of digital management mechanisms are revealed. Based on the analysis, practical proposals and recommendations for the digitalization of housing stock management in the Republic of Uzbekistan have been developed.

Keywords: housing stock, digital technologies, IoT, BIM, digital twin, smart city, foreign experience.

KIRISH

Dunyo miqyosida shaharlashuv jarayonlarining jadallashuvi uy-joy fondini boshqarish tizimiga boʻlgan talablarni tubdan oʻzgartirmoqda. Aholi soni oʻsishi, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasining murakkablashuvi hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanish zarurati anʼanaviy boshqaruv usullarining samaradorligini pasaytirmoqda. Shu bois uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, raqamli boshqaruv vositalari uy-joy fondini ekspluatatsiya qilish xarajatlarini kamaytirish, xizmat koʻrsatish sifatini oshirish va aholi bilan muloqotni yaxshilash imkonini beradi. Mazkur maqolada ushbu tajribalar tahlil qilinib, Oʻzbekiston sharoitiga mos takliflarni shakllantirishga harakat qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarni qoʻllash boʻyicha ilgʻor xorijiy tajribalar boʻyicha mavjud ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlik, davlat boshqaruvi sifatini oshirish va ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish bilan bogʻliq holda keng yoritilgan. Jumladan, uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qoʻllash borasida xitoylik Colin Yu Shing Chui, Tarek Zayed, Jiduo Xing va Shihui Ma [1], S.S. Achilov, M.X. Razokova [2], A. Abdugafarov [3], V.B. Zotov [4] kabi tadqiqotchilar uy-joy fondi va mulk boshqaruvida raqamlashtirish (BIM, IoT, katta maʼlumotlar, sunʼiy intellekt kabi texnologiyalar) haqida keng koʻlamli tahlil oʻtkazdilar. Bu texnologiyalar aktivlarni boshqarishni samarali qilish, energiyani tejash va real vaqt maʼlumotlari bilan ishlash imkoniyatini berishini taʼkidlab oʻtadilar.

Shuningdek, isroillik tadqiqotchi-olim Rafael Sacks [5] tomonidan ishlab chiqilgan Building Information Modeling (BIM) va digital twin konstruksiyasi yoʻnalishida katta ilmiy tajribaga ega. Uning ishlari qurilish va mulk menejmentida raqamli modellar orqali rejalashtirishni yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni oʻz ichiga oladi. Bunda u BIM va raqamli ikkilik texnologiyalari uy-joylar iqtisodiyotini samarali qilish, har bir binodagi maʼlumotlarni jamlash va tahlil qilish uchun muhimligini koʻrsatib bergan.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish boʻyicha xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularni Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirish metodikasi asos qilib olindi. Avvalo, ilgʻor mamlakatlar (Singapur, Yevropa Ittifoqi, Qozogʻiston, Rossiya, Xitoy va Janubiy Koreya) tajribalari tanlab olindi. Bu davlatlarda qoʻllanilayotgan IoT, BIM, raqamli ikkilik va “aqli shahar” kabi texnologik yondashuvlar kontent tahlil usuli orqali oʻrganildi. Shuningdek, mavjud ilmiy maqolalar, xalqaro hisobotlar va hukumat dasturlariga asoslanib, ularning samaradorlik koʻrsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida Oʻzbekiston uchun mos keluvchi amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli

yondashuv va tavsifiy metodlar uyg'unlashtirildi. Metodologiya tanlashda aniqlik, dolzarblilik va amaliylikka alohida e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarning nazariy asoslari nisbatan yaqin davrlardan beri shakllanib kelayotgan bo'lib, bu alohida bir tarmoq sifatida axborot texnologiyalari, jumladan, uning asosini tashkil etuvchi raqamli texnologiyalarning so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida jadal rivojlanib kelganligi bilan bog'liqdir.

Raqamli texnologiyalar uy-joy fondini boshqarishda an'anaviy qog'oz va qo'l bilan yuritiladigan jarayonlar o'rniga Sanoat 4.0, IoT, BIM, raqamli ikkilik (digital twin) kabi innovatsion yondashuvlarni joriy qilishni anglatadi. Bu texnologiyalar:

- ma'lumotlar yig'ish va tahlilni avtomatlashtiradi;
- qaror qabul qilishda real vaqt ko'rsatkichlarini ta'minlaydi;
- ta'mirlash va qurilish jarayonlarini rejalashtirishni samarali qiladi;
- energiya samaradorligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Amaliyotda raqamli texnologiyalarning "Aqlli shahar" (Smart City) konsepsiyasi ham qo'llanilib, bu yondashuv transport va kommunal xizmatlar bilan bir qatorda uy-joy fondini boshqarishni ham qamrab oladi. Bu:

- ijtimoiy ma'lumotlar platformalari,
- elektron xizmat ko'rsatish interfeyslari,
- yirik ma'lumotlar tahlili bilan bog'liq.

Shaharning raqamli infratuzilmasi uy-joy fondi bilan integratsiyalanganida uylarga xizmat ko'rsatish jarayonlari jadal va samarali bo'ladi.

Uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari quyidagilar orqali namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval.

Uy-joy fondi boshqarishda raqamlashtirishning afzalliklari¹

| Foyda | Qisqacha tavsif |
|---------------------------------|--|
| Real vaqt monitoring | Tizimlar holatini doimiy ko'rish va favqulodda holatlarga tez javob berish |
| Prognozli ta'mir | Noziklik belgilarini oldindan aniqlash va xarajatlarni kamaytirish |
| Energiya samaradorligi | Avtomatik optimizatsiya orqali energiya tejash |
| Ijtimoiy muloqot | Axborot platformalari orqali mulkdorlar bilan samarali aloqa |
| Yaxshilangan qaror qabul qilish | Keng ko'lamli ma'lumotlar tahlili orqali strategik rejalashtirish |

Raqamli texnologiyalarni ijtimoiy va iqtisodiy turmushning turli sohalarida, jumladan, uy-joy fondini boshqarish jarayonlariga joriy qilish asosan quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha olib borilmoqda.

Internet buyumlar (IoT) texnologiyasi – mazkur texnologiya o'z nomidan ham ko'rinib turganidek, uy-joy binolariga o'rnatilgan sensorlar orqali muhandislik tizimlarining holatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi. Suv, elektr

¹ Muallif ishlanmasi

energiyasi, gaz ta'minoti hamda isitish tizimlaridagi nosozliklar avtomatik ravishda aniqlanib, profilaktik ta'mirlash ishlari o'z vaqtida amalga oshiriladi. Bu esa ekspluatatsiya xarajatlarining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

BIM (Building Information Modeling) texnologiyasi – kundalik amaliyotda ham ko'pincha qisqacha qilib "BIM texnologiyasi" deb yuritiladigan mazkur texnologiya binolarning to'liq raqamli axborot modelini yaratishga asoslanadi. Ushbu model orqali qurilishdan tortib ekspluatatsiya davrigacha bo'lgan barcha ma'lumotlar yagona platformada jamlanadi. Xorijiy tajribada BIM uy-joy fondini boshqarishda rejalashtirish, ta'mirlash va modernizatsiya jarayonlarini optimallashtirishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Raqamli ikkilik (Digital Twin) konsepsiyasi – raqamli ikkilik texnologiyasi real obyektning virtual nusxasini yaratishga xizmat qiladi. Sensorlardan olingan ma'lumotlar virtual model bilan sinxronlashtirilib, binolarning texnik holatini bashorat qilish imkoniyati yaratiladi. Bu texnologiya ayniqsa ijtimoiy uy-joy fondida xavfsizlik va energiya samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarish jarayonlarida yuqorida ko'rsatib o'tilgan raqamli texnologiyalarning qo'llanilish tajribasi shakllanayotganiga hali ko'p vaqt bo'lmagan. Shu sababli quyida milliy uy-joy fondi boshqaruv jarayonlarida qo'llash uchun ilg'or xorijiy mamlakatlarning bu borada to'plagan tajribalarini ko'rib chiqish va ular asosida O'zbekiston sharoitlarida qo'llash maqsadida ayrim takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb topiladi.

Uy-joy fondini boshqarishda ilg'or xorijiy tajribalar ichida birinchi navbatda Singapur tajribasiga to'xtalib o'tiladi. Singapurda "Virtual Singapore" loyihasi doirasida butun shaharning uch o'lchamli raqamli modeli yaratilgan. Ushbu platforma uy-joy binolarini boshqarish, shahar infratuzilmasini rejalashtirish hamda energiya iste'molini optimallashtirishda keng qo'llanilmoqda. Bu tajriba uy-joy fondini markazlashgan raqamli tizim orqali boshqarish imkoniyatini namoyon etadi.

Diqqatga sazovor yana bir tajriba namunasi Yevropa mamlakatlari amaliyotidir. Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlarda ijtimoiy uy-joy fondlarini boshqarishda IoT va BIM texnologiyalari integratsiyalashgan. Natijada texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari kamayib, aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar sifati oshgan. Shuningdek, energiya tejamkor texnologiyalar orqali ekologik barqarorlik ta'minlangan.

O'zbekistonga qo'shni davlatlar ichida Qozog'iston tajribasi hududiy yaqinlik, milliy va madaniy o'xshashlik hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridagi mushtaraklik jihatidan muhim ahamiyatga ega. Qozog'istonda "Smart Housing" elektron platformalari joriy etilgan bo'lib, ular orqali uy-joy mulkdorlari va boshqaruv kompaniyalari o'rtasidagi munosabatlar raqamlashtirilgan. Aholi arizalarini onlayn qabul qilish, to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish va hisobotlarni avtomatik yuritish amaliyoti keng tarqalgan.

Urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi sonining o'sishi hamda kommunal infratuzilmaga bo'lgan talabning ortishi uy-joy fondini samarali boshqarishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. An'anaviy boshqaruv usullari

ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qaror qabul qilishda yetarli samara bermayotgan sharoitda raqamli texnologiyalar uy-joy fondini boshqarishda asosiy vositalardan biriga aylanmoqda.

Raqamli platformalar, geoaxborot tizimlari (GIS), "aqlli uy" va "aqlli shahar" konsepsiyalari uy-joy fondi holatini monitoring qilish, kommunal xizmatlar sifatini oshirish va boshqaruv shaffofligini ta'minlash imkonini beradi. Ushbu maqolada Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Polsha va Chexiya davlatlarining uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalari tahlil qilinadi.

Rossiyada uy-joy fondini raqamli boshqarish tajribasi o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Rossiya Federatsiyasida uy-joy va kommunal xizmatlar sohasini raqamlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatda "Aqlli shahar" konsepsiyasi doirasida uy-joy fondini boshqarishning yagona axborot tizimlari shakllantirilmoqda. Asosiy yo'nalishlardan biri ko'p kvartirali uylar uchun raqamli pasportlarni joriy etish hisoblanadi. Ushbu pasportlarda binolarning texnik holati, muhandislik tarmoqlari, ta'mirlash tarixi va kommunal xizmatlar haqidagi ma'lumotlar elektron shaklda saqlanadi. Bu esa boshqaruv kompaniyalari va davlat organlariga uy-joy fondi holatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, Rossiyada uy-joy kommunal xizmatlari sohasida milliy raqamli standartlar ishlab chiqilmoqda. Ular axborot tizimlarining o'zaro integratsiyasi, ma'lumotlar almashinuvi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Natijada uy-joy fondini boshqarishda qaror qabul qilish jarayoni ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

Dunyo iqtisodiyotining yetakchi mamlakatlaridan biri bo'lgan Xitoyda uy-joy fondini raqamli boshqarish "Smart City" (aqlli shahar) strategiyasi bilan uzviy bog'langan holda amalga oshirilmoqda. Bu mamlakatda raqamli texnologiyalar nafaqat alohida binolarni, balki butun shahar infratuzilmasini qamrab olgan. IoT, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va 5G texnologiyalari asosida uy-joy massivlarida energiya iste'moli, xavfsizlik, kommunal xizmatlar va jamoat tartibi nazorat qilinadi. "Smart Community" konsepsiyasi doirasida aholining murojaatlari, xizmatlar sifati va uy-joy fondi holati avtomatlashtirilgan tizimlar orqali baholanadi. Xitoy tajribasining muhim jihati uy-joy fondini boshqarishni shahar boshqaruvi tizimi bilan to'liq integratsiyalashdir.

Janubiy Koreya tajribasi ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni namoyon etadi. Bu mamlakatda uy-joy fondini raqamli boshqarish davlat siyosatining izchilligi va innovatsiyalarga ochiqligi bilan ajralib turadi. Raqamli monitoring tizimlari orqali uy-joy fondi holati, energiya samaradorligi va kommunal xizmatlar sifati baholanadi. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida ta'mirlash, modernizatsiya va yangi qurilishlarni rejalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

Polshada uy-joy fondini boshqarishda geoaxborot tizimlari (GIS) asosiy vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu texnologiyalar ko'p kvartirali uylar joylashuvi, infratuzilma holati va atrof-muhit omillarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Natijada mahalliy hokimiyat organlari hududiy rivojlanish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Chexiya Respublikasida uy-joy fondini raqamli boshqarish elektron davlat (e-government) tizimi bilan uzviy bog'langan. Mamlakatda raqamli identifikatsiya, elektron reyestrlar va ochiq ma'lumotlar platformalari joriy etilgan. Uy-joy bilan bog'liq ruxsatnomalar, ma'lumot almashinuvi va hisobotlar elektron shaklda amalga oshirilishi natijasida byurokratik to'siqlar kamaytirilgan.

Ko'rib chiqilgan xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasida uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- uy-joy fondi obyektlari bo'yicha yagona raqamli ma'lumotlar bazasini yaratish;
- yangi qurilayotgan uy-joylarda BIM texnologiyasini majburiy tarzda joriy etish;
- mavjud uy-joylarda IoT sensorlari orqali energiya va resurslar iste'molini monitoring qilish;
- boshqaruv kompaniyalari va aholi o'rtasida elektron platforma asosida muloqotni yo'lga qo'yish;
- "aqlli shahar" konsepsiyasi doirasida uy-joy fondini shahar infratuzilmasi bilan integratsiya qilish.

Uy-joy fondini boshqarishda raqamlashtirish texnologiyalarini qo'llash bo'yicha amalga oshirilgan tahlil ishlarimizdan quyidagi natijalar kelib chiqishini ta'kidlab o'tamiz:

1. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ammo bu jarayon kompleks islohotlarni talab qiladi.
2. Ilg'or xorijiy tajriba universal emas, uni mahalliy sharoitga moslashtirish zarur.
3. Inson kapitali hal qiluvchi omil bo'lib, kadrlar tayyorlashga investitsiya raqamlashtirish samaradorligini belgilaydi.
4. Davlat ishtirokisiz raqamli transformatsiya samarasiz bo'lib, strategik boshqaruv muhim ahamiyatga ega.
5. Raqamli tengsizlik xavfi adabiyotlarda asosiy muammo sifatida ko'rsatiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va boshqaruv shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida mazkur tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali uy-joy fondini zamonaviy va samarali boshqarish tizimini shakllantirish mumkin.

Tahlil qilingan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, uy-joy fondini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirish, kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash va aholining yashash sharoitlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Rossiyada standartlashtirish va raqamli pasportlar, Xitoyda kompleks "aqlli shahar" platformalari, Janubiy Koreyada ma'lumotga asoslangan boshqaruv, Polshada GIS texnologiyalari, Chexiyada esa elektron davlat xizmatlari uy-joy fondini raqamli boshqarishning turli, ammo o'zaro bog'liq modellarini namoyon etadi.

Ushbu tajribalarni o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun uy-joy sohasini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Colin Yu Shing Chui, Tarek Zayed, Jiduo Xing va Shihui Ma. “Emerging Digitalization in Property/Facility Management: A State-of-the-Art Review and Future Directions” - <https://www.researchgate.net/publication/274736746>.

2. Ачилов, С. С., & Разокова, М. Х.” Информационные технологии в Систему жилищно-коммунального хозяйства”, central asian Journal of theoretical & applied sciences, 3(1), 19-23 pp. Retrieved from January, Vol. 3 No.1 (2022): <http://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article>.

3. Абдугафаров А., Ачилов С.С. Выборочный статистический метод в сфере жилищно-коммунального хозяйства //Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalar: muammolar, innovatsiya va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, -2024. - TDIU Samarqand filial. str.251-256.

4. Зотов, В.Б. Современные информационные технологии в реформировании жилищно-коммунального хозяйства / В.Б. Зотов. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilievaa.narod.ru/ptpu/174>.

5. Sacks R, G. Lee, L. Burdi & M. Bolpagni, BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling for Owners, Designers, Engineers, Contractors, and Facility Managers (4th ed., Wiley, 2025). ISBN 978-1394222223.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

| | |
|-------------------------------------|--|
| Muharrir: | Xakimov Ziyodulla Axmadovich |
| Ingliz tili muharriri: | Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich |
| Rus tili muharriri: | Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li |
| Musahhih: | Karimova Shirin Zoxid qizi |
| Sahifalovchi va dizaynerlar: | Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li |

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**